

SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA HUQUQIY TA'LIM MASALALARI



Ermatova Sevara Alimovna

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimizdan sharq mutafakkiri-Burhoniddin Margʻinoniy, qomusiy alloma-Forobiy, mard va jasur sarkarda Amir Temurning huquqiy masalalardagi manbalari qisqacha bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: hidoya, huquqiy manba, Fozil odamlar shahri, 12 hislat, 12 toifa, Temur tuzuklari, qonun-qoidalar.

Oʻtmishdagi buyuk mutafakkirlarimiz Imom al-Buxoriy, Burhoniddin Margʻinoniy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, qomusiy allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, mard jasur sarkardalar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahridin Muhammad Boburlar bularning hammasi hozirgi va kelajak avlodlarga huquqiy ta'lim masalalarida juda ko'p bebaho huquqiy meros qoldirgan. Eng avvalo buyuk qomusiy olimlarimizdan Burhoniddin Margʻiloniyniing fiqh ya'ni, huquqiy masalalarga bag'ishlangan "Hidoya" nomli asarini keltirishimiz mumkin. Bu asar butun musulmon olamida mashhur bo'lgan asar hisoblanadi. Bu asarning mashhur bo'lishiga sabab: fiqh ya'ni huquq ilmi bo'yicha eng aniq, mukammal asar sifatida tan olinganligidir. Ushu asarda qonunning ifodasi emas, balki uning mukammal sharhi ham keltirilgan. "Hidoya"-so'zining ma'nosi "To'g'ri yo'l"-degan ma'noni anglatadi. Asar to'g'rilikka va haqiqatga asoslangan.

"Hidoya"-asari 4 ta jildan iborat bo'lib, har bir juzdagi masalalar aniq va ravshan yoritilgan. Masalan ularda namoz, ro'za, zakot, xaj, bedarak yo'qolganlar, topib olingan narsa, oldi-sotdi, homiylik, qarz berish, meros, yerlarni o'zlashtirish, qozilarning vazifalari, guvohlik, iqrar bo'lish, bosqinchilik va boshqa masalalarga alohida to'xtalib o'tilgan.

Abu Nasr Forobiy ham o'z davrining mutafakkiri, qomusiy olimi hamda faylasuf bo'lgan. U o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida, Fozil shahar hokimining o'n ikkita fazilati haqida bayon qiladi. Bunday shaharga hokim bo'ladigan odam o'ziga yuklangan vazifalarni bajaradigan bo'lishi, tez ilg'ab oladigan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qoladigan, zehni o'tkir, fikrini ravshan tushuntiradigan, o'qish va o'rganish jarayonida charchamaydigan, haqiqatni sevadigan, yolg'onni yomon ko'radigan, o'z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo'lishi, molidunyoga qiziqmaydigan, tabiatan adolatparvar bo'lishi, o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli bo'lishi, qo'rqq bo'lmaslik kabi zarur fazilatlar haqida aytib o'tgan. Rahbar insonlar bunday hislatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozimligini ta'kidlagan.

Umumiy qilib aytganda adolatli jamiyat yo'llarini quyidagicha ta'riflagan.

- ✓Fozil, yani 12 xislatni o'zida aks ettirgan davlat rahbari va davlat a'zolarining bo'lishi;
- ✓Qonun-qoidalarining mavjudligi va ularga davlat rahbarlarining va barcha aholining bo'ysunishi;
- ✓Ilm-fanning taraqqiy etishi;
- ✓Insonlarda yaxshi ahloq va xulqning shakllanganligi;
- ✓Davlat urush va bosqinchiliklarga qarshi bo'lmog'i, mamlakatda tinchlik, barqarorlikning o'rnatilishi-haqida aytib o'tilgan.

Huquqiy masalalar asrlar osha shakllanib kelmoqda. Davlat bilan huquq doimo bir-biriga uzviy bog'liq. O'zbek huquqiy madaniyatining tarixiy ildizlari Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan amaliy davlatchilik an'alariga, xususan Sohibqiron Amir Temur zamonasiga borib taqaladi. U o'z «Tuzuk»larida qayd etganidek, davlatni dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladi. Sohibqironning o'zi qonunlarga qat'iy rioya qilgan holda ahli musulmonlarni

gunoh ishlardan qaytarib, yaxshi va savob ishlarga undagan. Musulmonlarga tavsif, hadis, fiqhdan dars bersinlar, deb shaharlarga fiqh olimlarini va mudarrisini muntazam yuborib turgan. Milliy davlatchiligimizda oqil podshohlarimiz davlatni adolatli, qonun-qoidalar chegarasida boshqarganlar. Bu xususda jahongir Amir Temur yozadi: «... Saltanatim martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi». Huquqni davlatsiz, davlatni esa huquqsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Amir Temur "Saltanatimni 12 toifaga bo'lib, ularga tayangan holda ish yurgazdim. Saltanatim qonun-qoidalarini shu 12 toifaga bo'g'lab tuzdim", - deya ta'kidlagan. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchi toifa-sayyidlar, ulamo, shayxlar, fozillarni o'zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlisimni bezab turishdi. Diniy, huquqiy, aqliy masalalarni o'rta tashlab, qimmatli fikrlar bildirishardi. Halol va haromga oid masalalarni men ulardan o'rgandim.

Ikkinchi toifa-aqli kishilar va kengash sohiblari, ehtiyotkor arboblari, sergak va keyinini o'ylab, olisni ko'rib ish yurituvchi, keksha va tajribali kishilarni xos majlisimga kiritib, suhbatlaridan, ishlaridan naf olib, tajriba hosil qilardim.

Uchinchi toifa-duogo'y kishilarni qadrlardim. Ular bilan hilvatda suhbat qurib, ko'nglimdagi maqsadimni aytib, duo tilardim. Majlislarda, bazmlarda, jang maydonlarida ulardan ko'p xarakatlar topdim.

To'rtinchi toifa-amirlar, sarhanglar, sipohsolorlarga majlisdan o'rin berib, martabalarini yuqori ko'tardim. Ular bilan suhbatlashib, maslahatlar oldim. Jang maydonlarida mardona qilichlashgan shijoat ahlini do'st tutardim. Jang maydonlarida ot choptirib kirib-chiqish usullarini, g'anim lashkari to'pini buzib, saflarini sindirishni, nayza sanchib, qilich chopqilashni, butun urush-talash ishlarini ulardan so'rar edim. Sipohgarlik ishlarida ularga tayanib, ulardan kengash tilar edim.¹

Beshinchi toifa-sipoh va raiyat bo'lib, har ikkisiga bir ko'z bilan qaradim.

Oltinchi toifa-aqli, tajribali, eng ishonchli kishilarni, saltanat ishlarini, sirlarini ularga ochib, kengash qilishimga loyiq kishilar edi. Bular bilan sirdoshlik qilib, yashirin ishlar, mahfiy ishlarni shularga topshirdim.

Yettinchi toifa-vazirlar, bosh kotiblar, devon munshiylar-ki, saltanatim saroyini shular bilan bezatdim.

Sakkizinchi toifa-hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar-ki, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir.

To'qqizinchi toifa-muhaddislar, payg'ambar, uning avlodlari va sahobalari haqida rivoyatlar naql qiluvchilar (tarixchilar) hamda qissaxonlar bo'lib, ularni ham o'zimga yaqinlashtirdim.

O'ninchi toifa-mashoyixlar, so'filar, xudoni tanigan oriflardir.

O'n birinchi toifa-kasbu hunar egalaridir; bularning har toifa va sinfidan bo'lganlarini davlatga olib kelib, o'z o'rdamdan o'rin belgiladim-ki, safarda va hazarda sipohimga kerak yaroqlar va narsalarni hozirladilar.

O'n ikkinchi toifa-har mamlakat va diyor sayohatchilari-yu musofirlarning boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar², -deya ta'kidlaganlar.

Insoniyat yaralibdiki, o'z haq-huquqi ustida kurashadi. Bu kurash o'tmishda ham, hozir ham, kelajakda ham davom etadi va bu albatta tabiiy holdir.

Taklif o'rnida shuni aytmoqchimanki deyarli har bir ajdodlarimiz huquqqa oid meroslar qoldirgan. Masalan: Burhoniddin Marg'iloniy, Amir Temur, Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Rumiy va boshqalar. Ular huquqiy bilimlarni mukammal egallaganlar. Ular qoldirgan huquqiy manbalarni o'rganishimiz va anglab yetishimiz kerak.

Xulosa shuki, har bir davrning qonun qoidalari mavjud. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: "Har kim ta'lim olish huquqiga ega", - deyilgan. Hozirgi kunda ta'lim sohasida juda ko'p yangiliklar bo'layapti. Konstitutsiyamizning 64-moddasiga ko'ra "O'zbekistonni himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar

¹ <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/492-temur-tuzuklari.html>.

² <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/492-temur-tuzuklari.html>.

qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil hizmatni o'tashga majburdirlar",-deb ta'kidlangan. Mening xulosam esa, huddi shunday shakldagi armiyadan sal farqliroq ya'ni ixtiyoriy bo'lgan xotin-qizlar uchun, "Xotin qizlar tashabbusi" joriy etilishi lozimligidir. Bu dargohda xotin-qizlar bilishi kerak bo'lgan hamma pishiriqlar, salatlar, taomlar va tikish-bichishlar o'rgatilsa maqsadga muvofiqdir. Bu hamma xotin-qizlar uchun joriy etilsa, huddi hozirgi armiyamiz kabi bir yil yoki davlat tashkilotida ishlayotgan bo'lsa, shu ishlayotgan tashkilotidan bir oyga "Xotin-qizlar tashabbusi"ga yuborilsa, faqat farqi ixtiyoriylikidir. Bu gender tenglikka qarshi narsa emas, balki unda xotin-qizlar bilishi kerak bo'lgan narsalarini o'rganadilar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-"O'zbekiston" Toshkent -2023 yil.
2. Fozil odamlar shahri. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat ilmiy nashriyoti 2016 yil.
3. <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/492-temur-tuzuklari.html>.
4. <https://hikmatlar.uz>.
5. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. Conferencea, 126-134.
6. Xolnazarova, D. M., & Tangirberdiyev, S. H. (2024). YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. TADQIQOTLAR. UZ, 37(1), 120-123.
7. Xolnazarova, D., & Tangirberdiyev, S. (2021). TALABALAR HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TALIM-TARBIYANING ROLI. Academic research in educational sciences, 2(3), 1313-1317.